

Gidronimlarga asoslangan iboralarda metaforik ifoda xususiyatlari

Bozorova Rufina Sharopovna

rufinabozorova3@gmail.com

Katta o'qituvchi,

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya Mazkur maqolada gidronimlarga oid iboralarda metaforizatsiya jarayoni keng qamrovda tahlil qilinadi. Suv ob'ektlari nomlari nafaqat geografik tushuncha sifatida, balki insonning ichki kechinmalari, tafakkuri va ijtimoiy hayotidagi turli jarayonlarni ifodalashda ham muhim ramziy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda gidronimlarning turli kontekstlarda qo'llanishi, ularning bevosita lug'aviy ma'nosi va metaforik mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi. Shuningdek, bunday iboralarning yozma va og'zaki nutqda qo'llanishi, ularning stilistik qiymati, ma'no kengaytiruvchi hamda obraz yaratishga xizmat qiluvchi xususiyatlari yoritiladi. Suv timsolining turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi, uning ramziy semantikasi va emotsional yuklamasi ham alohida ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari gidronimlarning til boyligi va badiiy-estetik vazifasini ko'rsatib, ularning inson ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar va madaniyatni aks ettirishdagi o'rni haqida kengroq tasavvur beradi. Tahlil etilgan iboralarda gidronimlar turli kontekstlarda foydalanilishi, ularning bevosita ma'nosi bilan metaforik ma'nolari o'rtasidagi farqlar ko'rsatiladi. Shuningdek, gidronimlar yordamida o'rganilgan metaforalar orqali inson psixologiyasi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarining ifodalanishi ko'rsatilib, bunday iboralar yozma va og'zaki nutqda qanday rol o'ynashi tahlil qilinadi. Ushbu izlanish, gidronim tarkibli iboralarning lug'aviy va metaforik o'rni haqida yanada chuqurroq tushuncha beradi.

Kalit so'zlar Metaforik ifoda, gidronim, suv ramzi, til va madaniyat, tasviriy vosita, emotsional ma'no, suv ob'ekti, madaniy meros

Метафорические особенности выражения в фразах на основе гидронимов

Бозорова Руфина Шароповна

rufinabozorova3@gmail.com

Старший преподаватель,

Бухарский государственный университет

Аннотация В данной статье всесторонне анализируется процесс метафоризации в выражениях, связанных с гидронимами. Названия водных объектов выступают не только как географические термины, но и как важное символическое средство выражения внутреннего мира человека, его мышления и различных социальных явлений. В исследовании раскрывается взаимосвязь между прямым лексическим значением гидронимов и их метафорическим толкованием в различных контекстах. Кроме того, освещается стилистическая ценность подобных выражений в письменной и устной речи, их роль в расширении смыслов и создании образности. В статье также рассматриваются различные культурные интерпретации символики воды, её семантические коннотации и эмоциональная нагрузка. Результаты исследования демонстрируют языковое богатство гидронимов и их художественно-эстетические функции, предоставляя более

широкое понимание их роли в отражении психологии человека, социальных отношений и культурных ценностей. Анализ показывает различия между буквальным и метафорическим значением гидронимов в разных контекстах. Особое внимание уделяется тому, как метафоры на основе гидронимов выражают человеческие эмоции, культурные особенности и социальные связи, а также уточняется роль таких выражений в письменной и устной речи. Таким образом, исследование даёт более глубокое представление о лексическом и метафорическом значении выражений с гидронимами.

Ключевые слова

Метафорическое выражение, гидроним, символика воды, язык и культура, изобразительное средство, эмоциональное значение, водный объект, культурное наследие

**Metaphorical expression features
in phrases based on hydronyms****Bozorova Rufina Sharopovna**rufinabozorova3@gmail.com

Senior lecturer,

Bukhara State University

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the process of metaphorization in expressions related to hydronyms. The names of water objects appear not only as geographical terms but also as important symbolic means in expressing human inner experiences, thinking, and various social phenomena. The study reveals the relationship between the direct lexical meaning of hydronyms and their metaphorical interpretation in different contexts. Furthermore, the stylistic value of such expressions in written and oral discourse, their role in expanding meanings, and their function in creating imagery are highlighted. The article also examines the diverse cultural interpretations of water symbolism, its semantic connotations, and emotional implications. The findings demonstrate the linguistic richness of hydronyms and their artistic-aesthetic functions, offering a broader understanding of their role in reflecting human psychology, social relations, and cultural values. The analysis shows the differences between the literal and metaphorical meanings of hydronyms in various contexts. It also emphasizes how metaphors derived from hydronyms express human emotions, cultural aspects, and social relations, while clarifying the role of such expressions in both written and spoken language. This research thus provides a deeper insight into the lexical and metaphorical significance of expressions containing hydronyms.

Keywords

Metaphorical expression, hydronym, water symbolism, language and culture, figurative means, emotional meaning, water object, cultural heritage

Kirish

Ma'lumki, gidronimlar mamlakat hududida ilgari yashagan xalqlarning tili va tarixi haqida qimmatli ma'lumotlarning

tashuvchi manba hisoblanadi. Gidronimlarning o'ziga xosligi shundaki, ular ikkilamchi nomlardir. Boshqa tillardan o'zlashgan nomlarning etimologiyasi mahalliy aholi uchun

tushunarsiz. Qishloqning suv manbasiga nisbatan joylashishini tavsiflashda odatda qiyosiy taqqoslashlar qo'llaniladi (yuqori – past, katta – kichik, o'ng – chap). Suv havzalarining nomlari aholi punktlarining nomlariga o'tadi. Buloqlarning nomlari suvning sifati, joylashgan o'rni, oqim xususiyatlari, suv o'tlari mavjudligi, botqoqlik va boshqalarni tavsiflaydi. Yer ostidan chiqadigan suv manbasi buloq, chashma deb ataladi. Daryo va ko'llarning nomlari suv manbasining turi yoki xususiyatini bildiruvchi apellyativ xarakterdagi geografik atamalardan kelib chiqqan (Abdullayeva, 2015).

Asosiy qism

Ma'lumki, gidronimlar muayyan hududda yashagan xalqlarning tili, tarixi va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manba sifatida qaraladi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ko'pincha ikkilamchi nomlar hisoblanadi. Boshqa tillardan kirib kelgan nomlarning etimologiyasi esa mahalliy aholiga ko'p hollarda tushunarsiz bo'lib qoladi. Suv manbalari joylashuvini ifodalashda ko'pincha qarama-qarshi tushunchalar asosida taqqoslash ishlatiladi (masalan, yuqori – past, katta – kichik, o'ng – chap). Ko'plab suv havzalarining nomlari vaqt o'tishi bilan aholi punktlari nomlariga ko'chadi. Buloqlar esa ko'pincha suvning sifati, oqim tezligi, joylashuvi, suv o'tlari yoki botqoqlik kabi belgilar asosida nomlanadi. Yer ostidan chiqadigan suv manbalari odatda buloq yoki chashma deb ataladi. Daryo va ko'llarning nomlari esa asosan suv manbasining turi yoki xususiyatini ifodalovchi apellyativ tabiatdagi geografik terminlardan kelib chiqqan bo'ladi.

Gidronimlar o'ziga xos semantik qatlamlarga ega bo'lib, ular ko'pincha tarixiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, "Amudaryo" yoki "Sirdaryo" kabi nomlar nafaqat suv manbai sifatida, balki insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan geografik hududlarni ifodalaydi. Gidronimlar nafaqat geografik joylarni belgilabgina qolmay, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham muhim rol o'ynaydi. Metaforizatsiya – bu biror narsani yoki hodisani boshqa biror narsaga taqqoslash

orqali yangi ma'no va tushuncha yaratish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Gidronimlar ko'pincha turli sohalarda ya'ni madaniy meros sifatida qaralganda har bir gidronim o'z hududining tarixiy va madaniy merosini aks ettiradi. Misol uchun, "Buxoro daryosi" nomi mahalliy tarix va an'analarni eslatadi. Iqtisodiy ahamiyat jihatidan yondashadigan bo'sak suv resurslari qishloq xo'jaligi, sanoat va hayotiy faoliyat uchun muhimdir. Shu sababli, gidronimlar iqtisodiy resurslarni anglatadi (Begimov, 2020). Metaforizatsiya jarayonida gidronimlar boshqa sohalarda – masalan, emosional holatlar, ijtimoiy munosabatlar yoki hayotiy tajribalar bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu jarayonning asosiy xususiyatlari: Emotsional tasvir: Masalan, "suv – hayot" iborasi, suvning hayotiy ahamiyatini kuchaytirish orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, metaforizatsiya jarayonini quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

- *Fizik metafora*: Suvning fizik xususiyatlari, masalan, oqim, to'lqinlar, tinchlik kabi tushunchalar orqali tasviriy ma'nolar yaratiladi. "Tinch suv" – xotirjamlik va sokinlik ramzi.
- *Emosional metafora*: Suv orqali inson his-tuyg'ularini tasvirlash. "Ko'z yoshlarim daryo kabi oqdi" – bu ibora qayg'u va his-tuyg'ularning kuchini anglatadi.
- *Badiiy metafora*: Adabiyotda gidronimlardan foydalanish orqali muallif o'z fikrlarini chuqurlashtiradi. "Yovvoyi daryolar" – hayotdagi qiyinchiliklar va erkinlikni anglatadi. Quyidagi misollar gidronim tarkibli iboralarda metaforisatsiyaning qanchalik xilma-xil va boy ekanligini ko'rsatadi.

"Suvda aks etgan sevgim": Bu ibora sevgi hissiyotlarining chuqurligini va oshkoraligini ifodalaydi, shuningdek, ichki muammolar va kelishmovchiliklarni ta'kidlaydi.

"To'lqinlar singari hayot": Bu ibora hayotdagi o'zgarishlar va to'siqlarni ta'riflaydi, har bir to'lqin-yangi qiyinchilik yoki imkoniyat. *"Suvdan olingan saboq"*: Bu ibora tajribani va

hayotdan olingan darslarni ifodalaydi, suv orqali o'rganilgan narsalar muhim ahamiyatga ega. "Daryolar to'qnashadi" iborasi, ijtimoiy to'qnashuvlar yoki nizolarni ifodalovchi metafora sifatida ishlatilishi mumkin. Gidronimlar o'zining dastlabki ma'nosidan voz kechib, yangi ma'nolarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, "daryo" so'zi hayot yo'li sifatida metaforik ishlatilishi mumkin. Suv, ko'pincha, tinchlik, xotirjamlik yoki ruhiy holat bilan bog'lanadi. Misol uchun, "suvdagi aks" iborasi insonning ichki dunyosini ifodalovchi metafora bo'lishi mumkin. Gidronimlar o'z joylashgan hududining madaniyati va an'analari bilan bog'liq holda metaforik ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. "Suv" yoki "daryo" iboralari ko'pincha qizg'inlik, xursandchilik yoki qayg'u hissiyotlari bilan bog'lanishi mumkin. Daryo hayoti: "Hayot daryosi" iborasi insonning turmush yo'lini, o'zgarishlar va qiyinchiliklar bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydi. Daryo – bu davomiylik, harakat va o'zgaruvchanlikni ramzi. Suv va sevgi: "Sevgi – chuqur suv" iborasi, sevgi hislarining qanchalik chuqur va to'siqsiz ekanligini tasvirlaydi. Bu metafora sevgi haqida chuqur va nozik fikrlarni ifodalash imkonini beradi. Bahr va taqdir: "Ta'qib qiluvchi to'lqinlar" iborasi insonning taqdirini nazarda tutuvchi metafora sifatida foydalaniladi, bu yerda to'lqinlar hayotdagi to'siqlar va muammolarni anglatadi.

Gidronimlar va ularning metaforik ma'nolari madaniyatga qarab o'zgarishi mumkin. Har bir madaniyatda suv va suv ob'ektlariga nisbatan o'ziga xos munosabatlar mavjud. Misol uchun:

Sharq madaniyatida: Suv – tozalik va xayrli ishlar ramzi sifatida qaraladi. "Suv – tinchlik" tushunchasi keng tarqalgan. G'arb madaniyatida: Suvning metaforik ifodasi ko'pincha hayotiy qiyinchiliklar va ularni yengish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. "Daryo hayotning qiyinchiliklari" kabi iboralar qo'llaniladi (Bozorova, 2023).

Madaniyatning mohiyati ko'pincha uning musiqasi orqali o'tadi va nemis xalq qo'shiqlari bundan mustasno emas. Ushbu ohangdor

rivoyatlar ichida suv inson tajribasi va tabiiy dunyoni aks ettiruvchi turli xil ma'nolarni o'z ichiga olgan kuchli ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Hayot manbai bo'lgan suv ko'pincha nemis xalq qo'shiqlarida unumdorlik, o'sish va yangilanish ramzi sifatida nishonlanadi. "Es führt über den Main" va "Die Lorelei" kabi qo'shiqlarda daryolar va soylar jamiyatlar uchun hayot manbalari sifatida tasvirlangan, yerni oziqlantiradi va tirikchilikni ta'minlaydi. Suvning tsiklik tabiati - yomg'irdan daryolargacha va yana dengizgacha - hayot, o'lim va qayta tug'ilish ritmini aks ettiradi. Suvning kuchi va oldindan aytib bo'lmaydiganligi nemis xalq qo'shiqlarida ham e'tirof etilgan. "Die Schiffsjungfrau" va "Der Fischer" kabi qo'shiqlar kema halokati va cho'kishlar haqida hikoya qiladi, dengizning xavf-xatarini va u talab qiladigan hurmatni ta'kidlaydi. Bu qo'shiqlar ogohlantiruvchi ertaklar bo'lib xizmat qiladi, tinglovchilarga inson nazorati ostida bo'lmagan kuchlarni eslatadi.

Suv ko'pincha inson his-tuyg'ulari, xususan, ongsiz va ruhning chuqurligi bilan bog'liq bo'lgan his-tuyg'ular uchun metafora bo'lib xizmat qiladi. "Am Brunnen vor dem Tore" va "Sah ein Knab ein Röslein stehn" kabi qo'shiqlarda quduq va buloqlar yashirin istaklar va aytilmagan tuyg'ularning ramzi sifatida ishlatiladi. Suvning aks ettiruvchi yuzasi ichki dunyoni aks ettiradi, introspeksiya va tafakkurga chorlaydi.

Suvning tozalovchi kuchi nemis xalq musiqasida muhim rol o'ynaydi. "Im schönsten Wiesengrunde" va "Die Gedanken sind frei" kabi qo'shiqlar poklanish va hissiy yangilanish ramzi bo'lgan qayg'u va og'riqni yuvayotgan daryolar tasvirlarini uyg'otadi. Suv, shuningdek, suvga cho'mish va ruhiy qayta tug'ilish haqidagi qo'shiqlarda ko'rinib turganidek, o'zgartiruvchi kuchdir (Bozorova, 2023).

"Die Lorelei": Bu hayajonli ohang suvning jozibali va xavfli jozibasini ifodalovchi jozibali qo'shig'i bilan dengizchilarni o'limga jalb qiladigan sirena haqida hikoya qiladi.

"Die Gedanken sind frei": Mazkur qo'shiq cheklab yoki nazorat qilib bo'lmaydigan fikr erkinligini ifodalash uchun oqayotgan oqim metaforasidan foydalanadi.

"Im schönsten Wiesengrunde": Bu qo'shiq odam orom topib, hayot qiyinchiliklaridan qutulish mumkin bo'lgan tasalli va tasalli manbai sifatida tiniq buloq obrazini uyg'otadi.

Nemis xalq musiqasida suv ramziyligi turli mavzular orqali oqadi, bu odamlar va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Hayot va yangilanishni nishonlashdan tortib xavfni tan olish va hissiy chuqurliklarni o'rganishgacha bo'lgan suv nemis xalq qo'shiqlarining ma'nosi va hissiy rezonansini boyitgan kuchli motiv bo'lib xizmat qiladi (Bozorova, 2022).

Gidronim tarkibli iboralarda metaforizatsiya – bu nafaqat lingvistik jarayon, balki insoniyat tajribasining chuqur tushunchasi. Gidronimlar orqali yaratiladigan metaforalar, odamlarning ichki dunyosini, madaniyatini va tarixini aks ettirishga yordam beradi. Ushbu tahlil gidronimlarning ahamiyatini, ularning metaforik imkoniyatlarini va tildagi o'rnini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Gidronim tarkibli iboralarda metaforizatsiya, nafaqat suv ob'ektlari haqida yangi fikrlarni ifodalashga yordam beradi, balki inson his-tuyg'ularini, tajribalarini va madaniyatini ham aks ettiradi. Bu jarayon, o'z navbatida, til va fikr rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Gidronimlar orqali yaratilgan metaforalar insoniyatning tabiat bilan bog'liqligini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

Gidronimlarning metaforik talqini tilshunoslikda nafaqat ramziy ma'noni o'rganish bilan cheklanmay, balki inson tafakkuri, psixologiyasi va madaniy xotiraning shakllanish jarayonlarini ham o'zida mujassam etadi. Suv ob'ektlariga oid nomlarning turli metaforik talqinlari xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiribgina qolmay, balki tarixiy jarayonlarning tilga ko'chgan in'ikosini ham namoyon qiladi. Demak, gidronimlarni metaforizatsiya qilish

jarayoni insoniyatning tabiatga bo'lgan qarashini va u bilan o'zaro aloqadorligini ifodalovchi muhim semantik mexanizm sifatida qaraladi.

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan qaralganda, gidronimlarga asoslangan metaforalar inson tafakkurining asosiy modellari, xotira tizimi va konseptual maydonlarini ochib beradi. Masalan, "daryo – hayot yo'li" metaforasi inson ongida hayotiy jarayonlarni harakat, oqim va davomiylik bilan bog'laydi. "Suv – hayot" iborasi esa tafakkurda suvning biologik va ma'naviy ahamiyatini uyg'unlashtiradi. Shu orqali gidronimlar insonning konseptual dunyoqarashini shakllantiruvchi ramz sifatida xizmat qiladi. (Zoyirovna, 2022). Kognitiv yondashuv ularning til tizimidagi metaforik o'rnini kengroq talqin etishga imkon beradi.

Gidronimlar o'zida xalq madaniyati, qadriyatlari va milliy identitetini aks ettiradi. Sharq madaniyatida suv ko'proq tozalik, poklik va baraka ramzi sifatida qaralsa, g'arb madaniyatida u hayotiy kurash, to'sqinliklarni yengish, xavf va tajriba timsoli sifatida talqin etiladi. Nemis xalq qo'shiqlarida daryo va buloqlar hayot manbai va ruhiy yangilanish ramzi bo'lsa, o'zbek xalq og'zaki ijodida suv ko'proq poklik va baraka manbai sifatida ulug'lanadi. Bu esa gidronimlarning metaforik ma'nolari turli madaniyatlarda qanday o'zgarishini va til-madaniyat integratsiyasini yaqqol namoyon etadi (Kuchkarov, 2010). Gidronimlarning metaforizatsiyasini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tomondan, u onomastika, stilistika, semantika va kognitiv lingvistika fanlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, tilshunoslikka yangi yondashuvlar olib kiradi. Amaliy tomondan esa, metaforik gidronimlar:

- chet tillarini o'qitishda milliy madaniyatni chuqurroq anglash vositasi sifatida;
- tarjimalar jarayonida ramziy ma'nolarni to'g'ri yetkazish uchun/;
- madaniyatlararo muloqotda xalqning qadriyatlari va dunyoqarashini anglashda;

- badiiy ijodda obrazlarni kuchaytiruvchi estetik vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega.

Xulosa

Shunday qilib, gidronimlarga asoslangan metaforalar til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ular inson tafakkurining ramziy asoslarini ochib berib, badiiy nutqda chuqur ma'no yaratadi. Shu bilan birga, gidronimlar lingvopoetik tahlil uchun boy material bo'lib, ularning ilmiy va amaliy tadqiqi zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Gidronim tarkibli iboralar tahlili shuni ko'rsatadiki, suv ramzi insoniyat tafakkurida doimiy ravishda kuchli obraz sifatida yashab kelmoqda. Daryo,

ko'l yoki buloq kabi suv manbalari bevosita geografik tushunchalardan tashqari, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar va ruhiy kechinmalarni ham ifodalovchi kuchli ramzlardir. Suvga asoslangan metaforalar orqali inson o'zining quvonch va tashvishlarini, hayotiy sinovlarini hamda umidlarini ifodalaydi. Bu jarayon tilning obrazlilik darajasini boyitibgina qolmay, balki xalqning madaniy xotirasini ham mustahkamlaydi. Shu sababli gidronimlar tilshunoslikda nafaqat onomastik birlik, balki milliy-madaniy merosni ifodalovchi fenomen sifatida alohida o'rin tutadi. Ularni lingvopoetik jihatdan chuqur o'rganish hozirgi kunda madaniyatlararo tadqiqotlar, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, N. (2015). *Til va madaniyat: Gidronimlar kontekstida*. Samarkand: SamDU nashriyoti.
2. Begimov, O. T. (2020). *Janubiy O'zbekiston o'zlashgan toponimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi* [Monografiya]. Toshkent: Voris.
3. Bozorova, R. (2023). Tarjima san'ati va uning muammolari. *Tsentri nauchnykh publikatsiy (BUXDU uz)*, 29(29).
4. Bozorova, R. (2023). Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 126–126.
5. Bozorova, R. (2022). Гидропозэтонимларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги фразеологик бирликларда акс этиши. *Tsentri nauchnykh publikatsiy (BUXDU uz)*, 26(26).
6. Kuchkarov, A. (2010). *Gidronimlar va ularning semantikasi*. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
7. Zoyirovna, H. D. (2022). Studies on the concept of "Motherland" ("Heimat") in cognitive linguistics. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 155–158.